O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Grek yong‘og‘i po‘stlog‘ini sotish va uning sifatini nazorat qilish standarti

(DDP-01:2025, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #Y8TIKXP2LE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25 fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart DDP-01:2025 “Concerning the marketing and commercial quality control of inshell walnuts” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #Y8TIKXP2LE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni yengillashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, daromadlilikni oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga ko‘masinfhadi. BMT YIK standartlarini hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar qo‘llaydi. Ular yangi meva-sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida batafsil ma’lumot olish uchun bizning http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html veb-saytimizga tashrif buyuring.

Po‘choqli yong‘oqlarning marketingi va tijorat sifatini nazorat qilishga oid ushbu qayta ko‘rib chiqilgan DDP-01 standarti Ishchi guruh tomonidan 2025-yildagi saksoninchi sessiyasida qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2025/8 hujjatiga asoslanadi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #Y8TIKXP2LE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

GREK YONG‘OG‘I PO‘STLOG‘INI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ, КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ГРЕЦКИЕ ОРЕХИ В СКОРЛУПЕ

STANDART CONCERNING THE MARKETING AND QUALITY CONTROL OF INSHELL WALNUTS

Amalga kiritish sanasi -25 mart 2026y.

I. Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart tashqi po‘stlog‘idan tozalangan, *Juglans regia L.* turidan yetishtirilgan navlarga (kultivarlarga) mansub po‘choqli yong‘oqlarga tatbiq etiladi. Ular bevosita iste’mol qilish uchun yoki boshqa mahsulotlar bilan aralashtirib, qo‘shimcha qayta ishlashsiz bevosita iste’mol qilish uchun mo‘ljallangan.

II. Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi — tayyorlash va qadoqlashdan keyingi po‘choqli yong‘oqlarning sifat talablarini belgilashdir.

Biroq, agar standart eksport yoki jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu standart talablariga rioya etishi uchun mas’ul hisoblanadi. Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni standartga muvofiq bo‘lmagan shaklda namoyish etishi, sotuvga qo‘yishi, yetkazib berishi yoki bozorga chiqarishi mumkin emas.

A. Minimal talablar[1]

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chetlanishlar hisobga olingan holda, po‘choqli yong‘oqlar quyidagi belgilarga ega bo‘lishi lozim bu xususiyat oddiy ko‘z bilan yoki zarur hollarda to‘g‘rilangan 20/20 ko‘rish[2] qobiliyati bilan kuzatilganda:

(a) Qobiq quyidagicha bo‘lishi kerak:

- Butun; biroq, qobiqning bir qismi yo‘qolgan maydon umumiy hisobda diametri 6 mm (1/4 dyuym) bo‘lgan doira yuzasidan katta bo‘lsa yoki qobiqning ikki yarmi butunlay ajralib ketgan bo‘lsa, bunday holatlar nuqson sifatida baholanadi.
- Toza; ko‘rinadigan begona moddalar, shu jumladan yopishib qolgan po‘stloq qoldiqlari va kirlar umumiy yuzaning 10 foizidan ortiq qismini qamrab olmasligi lozim.

1. Atamalar va nuqsonlarning ta’riflari Namunaviy sxemaning III ilovasida keltirilgan. Bu ilovada quruq (po‘choqli yong‘oqlar va yong‘oq mag‘izlari) va quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etilgan atamalar hamda nuqsonlarning ta’riflari berilgan. Batafsil ma’lumot uchun: https://unece.org/trade/wp7/DDP-Standards.

2. Nuqsonlarni baholash jarayonida lupa, binokulyar yoki boshqa kattalashtiruvchi asboblardan foydalanish taqiqlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #Y8TIKXP2LE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• Dog‘siz; qobiq yuzasining 25 foizidan ortiq qismini qamrab oladigan rang o‘zgarishlari yoki boshqa sezilarli dog‘lar bo‘lmasligi kerak.

(b) Yadro quyidagicha bo‘lishi kerak:

• Achib ketmagan (rancid bo‘lmagan).

• Yetarlicha rivojlangan; haddan tashqari yassi va ajinli, qurib qolgan yoki qattiqlashgan qismlari yadroning 25 foizidan ortiq qismini qamrab oladigan, shuningdek bo‘sh po‘choqli yadro misollari chiqarib tashlanadi.

• Yetarlicha pishgan; yangi yong‘oqlar uchun yadroning terisini osonlik bilan ajratib olish mumkin bo‘lishi va ichki markaziy bo‘luvchi qismi jigarrang tusga kira boshlashi lozim.

• Dog‘siz; yadroning umumiy yuzasining 25 foizidan ortiq qismini qamrab oladigan rang o‘zgarishlari yoki sezilarli dog‘lar bo‘lmasligi kerak. Quyoshda kuygani tufayli rang o‘zgargan yadrolar ta’miga ta’sir qilmagan taqdirda qabul qilinadi.

(c) Mahsulotning butunligi (qobiq va yadro) quyidagicha bo‘lishi kerak:

• Sog‘lom; chirish yoki buzilish natijasida inson iste’moli uchun yaroqsiz holga kelgan mahsulot chiqarib tashlanadi.

• Mog‘or iplaridan xoli.

• Har qanday rivojlanish bosqichidagi tirik zararkunandalardan xoli.

• Zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan xoli, jumladan o‘lik hasharotlar va/yoki kenajlar, ularning qoldiqlari yoki najaslari mavjud bo‘lmasligi kerak.

• G‘ayrioddiy tashqi namlikdan xoli.

• Begona hid va/yoki ta’mdan xoli.

• Qobiqlar yuvilishi va oqartirilishi mumkin, biroq qo‘llanilgan ishlov yadrolarning sifatiga ta’sir qilmasligi lozim.

• Po‘choqli yong‘oqlar shunday holatda bo‘lishi kerakki:

• Tashish va ishlov berishga bardosh bera olishi.

• Manzilga yetib borganda qoniqarli holatda bo‘lishi.

B. Namlik miqdori[3]

Yangi po‘choqli yong‘oqlar tabiiy namlik miqdori kamida 20,0 foiz bo‘lishi lozim.

Quritilgan po‘choqli yong‘oqlarda esa namlik miqdori butun yong‘oq uchun 12,0 foizdan, yadro uchun esa 8,0 foizdan oshmasligi kerak.

C. Tasniflash

“IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar” bo‘limida ko‘rsatilgan nuqsonlarga muvofiq, po‘choqli yong‘oqlar quyidagi sinflarga tasniflanadi:

“Extra” sinf, I sinf va II sinf

Ruxsat etilgan nuqsonlar mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifati va saqlanish qobiliyatiga, shuningdek qadoqdagi taqdimotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.

---

[3] Namlik miqdori BMT YEIKning quruq va quritilgan mahsulotlar bo‘yicha standartlar uchun namunaviy tuzilmaning I ilovasida keltirilgan 1 va/yoki 2-usul orqali aniqlanadi. Nizoli holatlarda laboratoriyaning referens usuli qo‘llaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #Y8TIKXP2LE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

III. O‘lchamlarga oid qoidalar

O‘lchamlarni belgilash “Extra” sinf va I sinf uchun majburiy, II sinf uchun ixtiyoriydir. Minimal o‘lcham “Extra” sinf va I sinf uchun 26 mm, II sinf uchun esa 24 mm etib belgilangan.

O‘lcham quyidagicha aniqlanadi:

• Elekdan o‘tkazish orqali — mm hisobida yumaloq elek yordamida o‘lchangan minimal diametr;

• O‘lcham diapazoni orqali — minimal va maksimal diametr mm hisobida, ular orasidagi farq 2 mm dan oshmasligi lozim. Biroq, uzunchoq navlar uchun (balandligi ekvatorial kesimdan kamida 1,25 baravar bo‘lsa), maksimal o‘lcham diapazoni 3 mm dan oshmasligi kerak.

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Marketingning barcha bosqichlarida, ko‘rsatilgan sinf uchun belgilangan minimal talablariga mos kelmaydigan mahsulotlar to‘plamida sifat va o‘lcham bo‘yicha muayyan chetlanishlarga ruxsat etiladi.

A Sifat bo‘yicha qo‘yimlar

Yo‘l qo‘yiladigan nuqson	*Ruxsat etilgan qo‘yimlar, po‘stloqdagi nuqsonli yong‘oqlarning miqdori yoki og‘irligi bo‘yicha foiz ulushi (po‘stloqdagi yong‘oqlarning umumiy og‘irligi asosida)*		
	Ekstra sinf	*Birinchi sinf*	*Ikkinchi sinf*
a) Po‘choqning tashqi ko‘rinishiga ta’sir qiluvchi nuqsonlarga ruxsat etilgan chegaralar, masalan, po‘choqqa yopishgan perikarpiy/meva po‘sti, ifloslik va yuzaki nuqsonlar, ochiq, yorilgan yoki shikastlangan po‘choq			
	7	10	15
Mog‘or bosgan (yuzaki) yong‘oqlar - faqat yangi o‘rmon yong‘oqlari uchun	5	5	5
b) Minimal talablarga javob bermaydigan mag‘izlar (iste’mol qilinadigan qismi) uchun yo‘l qo‘yiladigan me’yorlar (100 ta yong‘oqdan iborat namuna asosida miqdor jihatidan)*,	8	10	15
ulardan ko‘pi bilan:			
mog‘orlagan yong‘oq mag‘zi	3	4	6
yetarli darajada rivojlanmagan, qurib qolgan yoki burishib ketgan donlar **	8	10	15
achigan mag‘izlar yoki zararkunandalar bilan zararlangan mag‘izlar, chirigan yoki buzilgan mag‘izlar	3	6	8
tirik hasharotlar bilan yong‘oqlar	0	0	0
c) Kalibr bo‘yicha qo‘yimlar (kalibrlash o‘tkazilgan taqdirda)			
Kalibrlashga oid qoidalarga yoki ko‘rsatilgan kalibrga muvofiq bo‘lmagan yong‘oq po‘chog‘i uchun jami	10	10	10

STANDARTLAR INSTITUTI #Y8TIKXP2LE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

d) Boshqa nuqsonlar uchun qo‘shimchalar			
Begona moddalar, shu jumladan qobiq bo‘laklari, meva qobig‘i qoldiqlari, chang va boshqalar. (og‘irligi bo‘yicha) ulardan ko‘pi bilan:	2	3	4
mineral kelib chiqishli begona moddalar	0,25	1	2
Po‘choqli yong‘oqlar, ko‘rsatilganlardan tashqari boshqa turga mansub bo‘lganlari	10	10	10

V. Taqdimotga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning[4] tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat bir xil kelib chiqishga, sifatga, hosil yiliga, o‘lchamga (agar o‘lcham belgilangan bo‘lsa) hamda nav yoki tijorat turiga (agar ko‘rsatilgan bo‘lsa) mansub po‘choqli yong‘oqlardan iborat bo‘lishi lozim.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun tarkibni ifodalovchi bo‘lishi kerak.

B. Qadoqlash

Po‘choqli yong‘oqlar mahsulotni to‘g‘ri himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi lozim. Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza bo‘lishi va mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaslik darajasida sifatli bo‘lishi kerak. Materiallardan, xususan savdo belgilari tushirilgan qog‘oz yoki tamg‘alardan foydalanishga ruxsat etiladi, biroq bosma yoki yorliq toksik bo‘lmagan siyoh yoki elim bilan bajarilgan bo‘lishi shart.

Qadoqlar “IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar” bo‘limidagi chetlanishlar jadvaliga muvofiq, amalda barcha begona va ortiqcha moddalaridan xoli bo‘lishi lozim.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda[5] quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan holda, o‘qilishi oson, o‘chmas yozuvda va tashqaridan ko‘rinadigan tarzda keltirilishi lozim:

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi: to‘liq nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi va, agar kelib chiqish mamlakati boshqacha bo‘lsa, mamlakat nomi) yoki milliy vakolatli[6] organ tomonidan rasmiy tan olingan kod belgisi (agar bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat UNECE Kod Belgilari reyestrida ro‘yxatga olingan bo‘lsa).

---

[4] "Paketlar" atamasi BMT YEIKning quruq va quritilgan mahsulotlar bo‘yicha standartlarining III ilovasida ta’riflangan.

[5] Ushbu markirovkalash qoidalari paketlarda taqdim etilgan savdo o‘ramlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

[6] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kod belgisidan foydalanilganda, "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi" iborasi (yoki unga teng qisqartmalar) kod belgisi bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rsatilishi lozim. Agar kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kod belgisidan oldin tan oluvchi mamlakatning ISO 3166 alfa kodi keltirilishi shart.

STANDARTLAR INSTITUTI #Y8TIKXP2LE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B. Mahsulotning tabiati

- “Yong‘oq” yoki “Quritilgan yong‘oq”
- “Yangi yong‘oq” yoki unga teng atama
- Nav nomi yoki tijorat turi (ixtiyoriy).

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- Kelib chiqish[7] mamlakati va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan hudud yoki milliy, mint-aqaviy yoki mahalliy joy nomi.

D. Tijorat spetsifikatsiyalari

- Klas
- O‘lcham (agar belgilangan bo‘lsa); III-bo‘limga muvofiq ifodalanadi
- Hosil yili (“Extra” sinf va I sinf uchun majburiy, II sinf uchun ixtiyoriy)
- “Yaroqlilik muddati” sanasi bilan (ixtiyoriy)
- “Sovuq joyda saqlansin” yoki “Saqlanish muddati juda cheklangan, sovuq joyda saqlan-sin” — yangi yong‘oqlar uchun.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1970-yilda qabul qilingan (BMT YeIK tomonidan po‘choqsiz yong‘oqlar uchun standart sifatida).

So‘nggi marta 2025-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.

2022-yilgi standart tartibga moslashtirilgan.

---

[7] To‘liq yoki keng tarqalgan nom ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #Y8TIKXP2LE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI